



Til Va Xotira O‘Rtasidagi Neyropsixolingvistik Bog‘Liqlik

Z.A.Akbarova filologiya fanlari doktori, FarDU professori

M. S.Muxtoriy FarDU o‘qituvchisi m_muxtoriy@mail.ru

Annotatsiya

Maqola neyropsixolingvistik tadqiqotlar doirasida miyadagi turli strukturalar va ularning til jarayonlariga qanday ta'sir qilishini o'rganishga qaratilgan. Mazkur maqola neyropsixolingvistikaning asosiy tamoyillarini va tilni qabul qilish jarayonining miyada qanday ishlashini tahlil qilish va miya faoliyatining turli qismlari qanday qilib tilga ta'sir ko'rsatishi, tilni o'rganish va tushunish jarayonlarida qanday mexanizmlar ishtirok etishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: til, xotira, neyropsixolingvistika, miyadagi til jarayonlari, xotira mexanizmlari, mnemotexnika, metod, metodika.

The Neuropsycholinguistic Connection Between Language And Memory

Z.A.Akbarova, Doctor of Philological Sciences, Professor at FarDU

M.S. Mukhtoriy, Teacher at FarDU

Annotation

The article is focused on studying various brain structures and their influence on language processes within the framework of neuropsycholinguistic research. This article analyzes the key principles of neuropsycholinguistics and examines how the process of language perception works in the brain. It also identifies the mechanisms involved in how different parts of the brain affect language, as well as the processes of language learning and understanding.

Keywords: language, memory, neuropsycholinguistics, language processes in the brain, memory mechanisms, mnemonics, method, methodology.

Нейропсихолингвистическая Связь Между Языком И Памятью

З.А. Акбарова, доктор филологических наук, профессор ФарДУ

М. С. Мухторий, преподаватель ФарДУ m_muxtoriy@mail.ru

Аннотация

Статья посвящена изучению различных структур мозга и их влияния на языковые процессы в рамках нейропсихолингвистических исследований. В данной статье анализируются основные принципы нейропсихолингвистики и работа процесса восприятия языка в мозге, а также выявляются механизмы, участвующие в воздействии различных частей мозга на язык, изучение и понимание языка.

Ключевые слова: язык, память, нейропсихолингвистика, языковые процессы в мозге, механизмы памяти, мнемотехника, метод, методика

KIRISH

Neyropsixolingvistika tilni o'rganish va nutq faoliyatini miyaning neyron tuzilmalari bilan bog'liq jarayonlar orqali tushuntiruvchi fan sohasi hisoblanadi. Bu fan psixolingvistika, neurobiologiya va kognitiv ilm-fan bilan chuqur aloqada bo'lib, til qobiliyati, til o'rganish, til buzilishlari va neyrofiziologik mexanizmlarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Tilga oid neyropsixologik tadqiqotlar insonning nutq ishlab chiqarish, tushunish va tilni qayta ishlash jarayonlarini chuqur o'rganishga



imkon beradi So'nggi tadqiqotlar neyropsixolingvistikaning asosiy tushunchalariga, jumladan, miya yarim sharlarining til bilan bog'liq funksiyalariga, afaziyaga (til o'zlashuvi buzilishi) va til o'rganishning neyrobiologik asoslariga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Neyropsixolingvistika atamasining tadriji ancha qiziqarliroq. Neyrolingvistikani psixolingvistikaning bir uzvi sifatida ko'rish an'anasi mavjud. Shuningdek, bu ikkisining obyekt va predmetini farqlab ko'rsatish ham keng tarqalgan: psixolingvistika til, tafakkur va ongning o'zaro aloqasini nevrologiyadan tashqarida o'rganadi. Neyrolingvistika miyaning nutqiy funksiyasini butun bir sistema sifatida, nutqning buzilish va yo'qolish holatlari (afaziya)ni sistemaning buzilishi sifatida o'rganadi [5].

O'quvchilarga til ta'limini chuqur singdira olsak, ularning nuqini boyishiga erisha olamiz. Bu borada bolaning kognitiv rivojlanishi ham muhim omillardan biridir. Hozirda mavjud bo'lgan va turli holatlarda so'z orqasida qaysi aloqalar tizimi yashiringanligini ob'ektiv baholashga imkon beradigan usullarga va birinchi navbatda, bola rivojlanishining har bir bosqichida ongning semantik va tizimli tuzilishini baholashga e'tibor qaratadi [6].

Ongning til ta'limini o'zlashtirishi xotira bilan bevosita bog'liqdir. Bolaning kognitiv rivojlanishida mnemotexnik usullardan foydalanishimiz til imkoniyatlaridan keng foydalanishlariga imkon yaratadi.

Biz o'z tadqiqotimizda rasmlar mnemotexnik usullardan foydalandik va buni o'quvchilarning iboralarning ma'nolarini o'zlashtirishida samarali usul ekanligini aniqladik. Rasmlar kitoblardagi matn ko'rmay turib, rasmlarga qarab to'qilgan hikoyalar keyinchalik haqiqiy hikoyadan mutlaqo farq qilishi tadqiqotlarda ko'rsatilgan [4]. Bu esa, o'z navbatida, rasmlar kitob har xil o'quvchiga turlicha ta'sir qilishi va samara berishi mumkinligini ko'rsatadi. Rasmlar kitobda jim turgan matn haqida rasm so'zlaydi, rasm gapirmaganini matn aytadi. Ya'ni, rasm ham, matn ham bir-biriga jim turgan narsalar haqida gapiradi. Undan tashqari, rasm matn o'zgartiradi, matn esa – rasmlar berilayotgan ma'nolarni. Qaysidir ma'noda matn va rasm bir-birini tahlil qilishda chegara qo'yadi [3]. Muvaffaqiyatli chiqqan rasmlar kitobda rasm va matn bir-birini boyitib turadi. Har biri hikoyaga biror element qo'shadi, ularning biri bo'lmaganida esa hikoya mutlaqo o'zgacha bo'ladi [2].

Har bir ishtirokchiga turli xil til topshiriqlar berildi, jumladan, iborani tushunish, ma'nosini aytish va iboralar ustida hikoyalar yaratish

NATIJALAR

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilar murakkab til topshiriqlarini bajarayotganda, asosan miya chap yarim sharining Broka va Vernike zonalarida faolroq bo'lgan. Ayniqsa, murakkab iboralarni tushunish kabi vazifalar miya faoliyatini sezilarli darajada oshirgan. Shuningdek, bu jarayon davomida o'ng yarim sharda ham neyron faollik kuzatilgan, ammo u chap yarim shar bilan taqqoslaganda sustroq bo'lgan.

Natijalar neyropsixolingvistika sohasidagi oldingi tadqiqotlar bilan mos keladi. Broka va Vernike zonalarining tilni tushunish va ishlab chiqarishdagi asosiy roli yana bir bor tasdiqlandi. Murakkab til topshiriqlari davomida o'ng yarim sharining ishtiroki til jarayonlarining miya bo'ylab keng tarqalganligini ko'rsatmoqda. Bu esa til va miya o'rtasidagi murakkab mexanizmlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Bu tadqiqot shuningdek, ikki tilni biluvchi shaxslarda tilni qayta ishlash jarayonlarida miya faoliyatining qanday o'zgarishi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim etdi. Bunday natijalar kelajakda afaziya va boshqa til o'rganish qiyinchiliklarini davolash usullari uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

MUHOKAMA

Miya tilni tushunish va qayta ishlash jarayonlarida murakkab strukturalarga ega. Chap yarim shar Broka va Vernike zonalarining yetakchi roli yana bir bor tasdiqlandi, biroq o'ng yarim shar ham bu jarayonlarda muhim o'rin egallaydi. Ushbu natijalar neyropsixolingvistikani yanada rivojlantirish va tilni o'rganish qiyinchiliklarini tushunishda yangi imkoniyatlar yaratadi.



O'quvchilarda gapirishni kech o'rganish, so'zlarni talaffuz qilishdagi qiyinchilik, so'z boyligiga ega bo'lishda yoki yoshga mos grammatikadan foydalanishda qiyinchilik, tushunchalar va munosabatlarni tushunishda qiyinchilik, so'z tanlash yoki nomlash bilan bog'liq qiyinchiliklar [1] og'zaki nutqini pasayishiga olib keladi.

Neyropsixolingvistika insonning tilni o'rganish va tushunish qobiliyatlarini neyron asoslarda o'rganishda muhim ilmiy sohaga aylandi. Ushbu tadqiqot miya qismlari va til o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berdi, til buzilishlari va neyron jarayonlarni tahlil qildi.

Neyropsixolingvistikaning qo'llanilishi nafaqat tilni o'rganish sohasida, balki tibbiy yordamda ham muhimdir. Afaziya va boshqa til bilan bog'liq kasalliklar haqida chuqur bilim, zarur davolash strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA

Maktab ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy jozibadorlikni oshirish, ularning kommunikatsiya jarayonida aniq fikr bildirish qobiliyatini rivojlantirishda tildagi ma'nosi o'quvchilarga ma'nosi tushunaarsiz so'zlarni mnemotexnik usullar orqali bersak, ularning xotirasida so'z ma'nolari uzoq muddat va aniq saqlanib qolishiga erishishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Akbarova, Disleksiyadan xabardormisiz? Ota-onalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va tadqiqotchilar uchun uslubiy qo'llanma. Farg'ona 2024.
2. D. Muminova "Bolaning kognitiv rivojlanishi uchun pedagogik jarayonda rasmi kitoblardan foydalanish" TIL VA ADABIYOT TA'LIMI jurnali. 2024-yil, 3-son. 45-bet
3. Nikolajeva M. Reading for learning: cognitive approaches to children's literature. – John Benjamins, 2014
4. Nikolajeva M., Scott C. How picturebooks work (1st ed.). – Routledge, 2001. <https://doi.org/10.4324/9780203960615>.
5. Sh.H. Shaxobidinova, Z.A.Akbarova, N.R.Umarova "Neyrolingvistikaning nazariy asoslari va metodlari" FarDU. Ilmiy xabarlar jurnali. 2023-yil, 4-son, 280-bet
6. Z. S.Maxmudovna, "A.R.Luriyaning nutqiy patologiyalarni tashxislashga doir qarashlari tahlili" Science and innovation in the education system" International scientific-online conference. Italiya 2024-yil 15-aprel.